



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



**VOL.3 № 2**

**2026**

## **NUTQNING TO'G'RILIK KOMMUNIKATIV SIFATINI SHAKLLANTIRUVCHI ME'YORLAR**

**Xaydarova Muborak**

Termiz davlat universiteti, talaba

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada madaniy nutning eng muhim tamoyili hisoblangan nutqning to'g'riligi va uni shakllantiruvchi omillar haqida so'z boradi. Muallif nutqning to'g'riligini yuzaga keltiruvchi 10 ta: leksik, orfoepik, fonetik, grafik, aksentologik, grammatik (morfologik, sintaktik), so'z yasalishi, uslubiy, orfografik, puntuatsion me'yorlar doirasida o'z qarashlarini tilshunos olimlarning nazariyalariga tayangan holda bayon etadi.

**Kalit so'zlar:** madaniy nutq, nutqning to'g'riligi, adabiy til va leksik, orfoepik, fonetik, grafik, aksentologik, grammatik (morfologik, sintaktik), so'z yasalishi, uslubiy, orfografik, puntuatsion me'yorlar.

## **КОММУНИКАТИВНОЕ КАЧЕСТВО ПРАВИЛЬНОСТИ РЕЧИ И ФОРМИРУЮЩИЕ НОРМЫ**

**Хайдарова Муборак**

Термезский государственный университет, студентка

### **Аннотация**

В данной статье рассматривается правильность речи как один из важнейших принципов культуры речи и факторы, формирующие её. Автор, опираясь на теоретические положения лингвистов, излагает свои взгляды в рамках десяти норм, обеспечивающих правильность речи: лексических, орфоэпических, фонетических, графических, акцентологических, грамматических (морфологических, синтаксических), словообразовательных, стилистических, орфографических и пунктуационных.

**Ключевые слова:** культура речи, правильность речи, литературный язык, лексические, орфоэпические, фонетические, графические, акцентологические, грамматические (морфологические, синтаксические), словообразовательные, стилистические, орфографические, пунктуационные нормы.

## **THE COMMUNICATIVE QUALITY OF SPEECH CORRECTNESS AND FORMATIVE NORMS**

**Xaydarova Muborak**

Termez State University, Student

### **Abstract**


This article discusses correctness of speech as one of the fundamental principles of speech culture and the factors that shape it. Relying on linguistic theories, the author presents her views within the framework of ten norms that ensure speech correctness: lexical, orthoepic, phonetic, graphic, accentological, grammatical (morphological and syntactic), word-formation, stylistic, orthographic, and punctuation norms.

**Keywords:** speech culture, speech correctness, literary language, lexical, orthoepic, phonetic, graphic, accentological, grammatical (morphological, syntactic), word-formation,

stylistic, orthographic, punctuation norms.

So‘nggi yillarda “madaniy nutq” tushunchasi ko‘plab sohalarga kirib borib, o‘z o‘rni va ahamiyatiga ega bo‘lib bormoqda . Xususan, ushbu termin davlat boshqaruvi va hujjatchilikda ish qog‘ozlarining huquqiy mavqeyini aniq va to‘g‘ri ifodalashda xizmat qilsa, OAVda jamiyatning nutq saviyasini samarali rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega, biznesda esa ikki tomonlama hamkorlikni yanada ishonchli va muvaffaqiyatli kechishiga yordam beradi. Biroq bu tushunchaga tilshunoslik nuqtayi nazaridan yondashadigan bo‘lsak, madaniy nutq tilning imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanib, o‘zida nutqqa xos bo‘lgan zaruriy birliklarni, ya’ni 7 ta kommunikativ sifatlarini mujassamlashtirgan imliy nazariyalar majmuyi hisoblanadi.

Nutqning to‘g‘riligi, aniqligi, mantiqiyligi, ifodaligi, boyligi, sofligi, jo‘yaliligi – ushbu kommunikativ sifatlar nutq madaniyatini ta’minlashda o‘z o‘rniga ega bo‘lsa-da, ularning orasida nutqning to‘g‘riligi masalasiga alohida yondashuv maqsadga muvofiqdir. Boisi nutq, avvalo, to‘g‘ri bo‘lmasa, o‘z-o‘zidan uning mantiqiyligi, aniqligi, ta’sirchanligi va boshqa jihatlarini e’tiborga olishga hojat qolmaydi. Bu borada V.G. Kostomarov to‘g‘rilik deganda, nutq madaniyatining zarur va birinchi sharti sifatida adabiy tilning ma’lum paytda qabul qilingan normasiga qat’iy va aniq muvofiq kelishini tushunish lozimligi nazarasiyasini ilgari surgan . Lingvistikada esa nutqning 10 ta adabiy til me’yorlariga ega bo‘lishi to‘g‘rilik sifatini ta’minlovchi vositalar hisoblanib, bu borada til me’yorlari til birliklari va uning qurilishini o‘zaro yaxshi tushunish zaruriyati tufayli paydo bo‘lgan, undan foydalanuvchi xalq tomonidan yaratilgan amaldagi qoidalar yig‘indisi degan qarash yuqoridagi fikrni yoritib beradi (1-jadvalga qarang).



1-jadval. Nutqning togrilik kommunikativ sifati shakllantiruvchi me’yorlar

Ushbu me’yorlar quyidagilar hisoblanadi:

1. Leksik-semantik me’yor – so‘zlarning ma’no va mazmun jihatidan kontekstga muvofiq kelishini ta’minlovchi me’yor. Ushbu me’yorning buzilishiga misol sifatida quyidagi

holatlarni keltirishimiz mumkin:

- sinonimlarni o'ransiz qo'llash: chehrasi sovuq yoxud go'zal yigit;
- paronimlarni yanglish qo'llash: yetti yod begona yoki asil nusxa;
- so'zlarning keraksiz takrori: men kecha uning men haqimda mendanda ko'proq bilishini angladim;
- so'zlardan mantiqan noto'g'ri foydalanish: tunda quyosh charaqlab nur sochardi.

2. Orfoepik me'yori – to'g'ri talaffuz me'yori. Suhbat jarayonida yo'l qo'yiladigan orfoepik xatoliklar (talaffuzda tovushlar tizimining buzilishi, tushib qolishi, almashishi va h.k) so'zlovchining nutqiy saviyasini hamda savodxonlik darajasini ko'rsatish baravarida tinglovchining jummalarni to'g'ri qabul qilishiga ham putur yetkazadi, shu boisdan ushbu masalada talaffuzimizda tez-tez uchrovchi tovush hodisalari bu masalada alohida ahamiyatga ega. Xususan, og'zaki nutqdagi assimilyatsiya – yonma-yon kelgan tovushlarda birining ikkinchisiga ta'siri evaziga monand aytilish hodisasi (shamba-shanba, aytti-aytdi), metateza – so'zdagi tovushlar o'rining almashish jarayoni(dayro-daryo, baryoq-bayroq, afv-avf), dissimilatsiya – tovushlar talaffuzining bir-biridan farq qilish holati(dimog'-dimog, muhum-muhim), epenteza – tovush qo'shib talaffuz qilish hodisasi(istol-stol, doir-doyir), eliziya – tovush tushirib talaffuz qilish jarayoni(go'sh-go'sht, malim-muallim) kabilar orfoepik me'yorning buzilish ko'lamini ochib bera oladi.

3. Fonetik me'yori – o'zbek tilidagi mavjud 24 ta undosh tovush hamda 6 ta unli tovushning to'g'ri talaffuzini amalda talab etuvchi me'yori. Nutq jarayonida so'zlar talaffuzini noto'g'ri aytish nutq sifatining pasayishi hamda ta'sir kuchining yo'qolishiga sabab bo'ladi. Misol uchun, "tahdid" so'zida h va d tovushlarining "taxtit" shaklda x va t ga monand, "farzand" so'zidagi d tovushining "farzant" tarzida t ga nisbat aytilishi yoxud "bilan" so'zida i unlisining bilinar-bilinmas talaffuz qilinishi ayni fonetik me'yorning buzilishiga yorqin namuna bo'la oladi. Shuningdek, ushbu me'yorga zid holatlarning eng ko'p qismi shevalarda tez-tez uchraydi. E unlisini "kelmoq", "qayer" so'zlari asoslarida i harfiga monand "kiladi", "qayir" shaklida aytilishi yoxud Boysun hududida esa y tovushining o'rniga j tovushidan keng foydalanishi shevalarning adabiy tilga ta'sirini fonetik me'yori asosida dalillab beradi.

4. Grafik me'yori – yozma nutqdagi harflar tizimini ta'minlovchi me'yori. Hozirga qadar o'zbek yozuvining shakllanishi juda ko'p yillik bosqichlarni o'z ichiga olgan bo'lib, VIII-IX asrlar oralig'ida qadimgi uyg'ur, xorazm va O'rxun-Enasoy yozuvlarini qo'llaganini, O'rta Osiyo arablar tomonidan egallanganidan so'ng, arab alifbosi iste'molga kirganini, 1928-1940-yillarda lotin alifbosi amalda bo'lib, 1940-yilda sobiq Ittifoqdagi boshqa ko'plab tillar singari o'zbek tili ham kirill yozuviga o'tkazildi. O'zbekiston mustaqil bo'lganidan keyin, rasman 1989-yilda lotin alifbosining qayta joriy etilganini alohida ta'kidlash joiz. Hozirgi lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida mavjud 23 ta undosh harflar hamda 6 ta unli harflarning asosli qo'llanishi esa bu me'yorning asosiy obyekti sanaladi. Sh, ch, ng kabi harf birikmalarining o'rinli aks etishi, o' va g' harflari qimlarining to'g'ri shaklda qayd etilishi hamda tutuq belgisi(,)ning aniq qo'llanilishi so'g'gi yillarda jamoatchilik e'tibor markazidadir. Misol uchun, kundalik online yozishmalarda, ayniqsa, sh harfining o'rniga "w"dan, ch harfi sifatida esa "c"dan foydalanish: "yaxwi", "keyinci"; yoxud "o'rin", "bag'ir" kabi so'zlardagi o' va g' unshoshlarining o'/g' shaklda kelishi yuqoridagi fikrlarga asos bo'la oladi.

5. Aksentologik me'yori esa urg'uning gap va so'zdagi to'g'ri joylashuvini talab etuvchi me'yori hisoblanadi. Bilamizki, urg'u gapdagi biror so'zning yoki so'zdagi biror bo'g'inining kuchliroq talaffuz qilinishi sanaladi(shunga ko'ra: so'z urg'usi va gap urg'usi) va uni to'g'ri aniqlay bilish nutqning sifatiga hamda undagi so'z va gaplarning tinglovchiga aniq hamda tushunarli bo'lishiga zamin yaratadi. O'zbek tilida so'z urg'usining o'ni, asosan,

soʻzning oxirgi boʻgʻinida (maktablarda), joylashsa-da, ushbu holatga mustasno holatlar ham yoʻq emas. Xususan, qoʻshimcha shaklidagi yuklamalar, feʼl va ravish yasovchi qoʻshimchalar, feʼlning shaxs-son shakllari va boʻlishsizlik shakli hamda bogʻlamalar hech qachon urgʻu olmaydi. Gap urgʻusi esa kesimdan oldingi boʻlakka tushadi (men kecha doʻstlarim bilan shahar markazidagi muzeyga bordim). Biroq yuqoridagi qoidaga boʻysunmaydigan maydigan holatlarni alohida inobatga olish kerak: agar gap tarkibida ajratilgan boʻlak yoki soʻroq olmishlari ishtirok etsa, urgʻu oʻz-oʻzidan bu birliklarga tushadi (masalan: 1. Kim sevmaydi oʻz yurtini? 2. Biz – insonlar har doim shoshamiz-u, lekin nimaga ekanligini bilmaymiz) hamda inversiya natijasida kesim gap boshiga koʻchsa, urgʻu aynan umga tushadi. (masalan: Ketmoqdaman qaylargadir, manzirim bilmay)

6. Grammatik meʼyor – soʻzlarning toʻgʻri bogʻlanishini hamda gap qurilishini taʼminlovchi, yana-da aniqroq aytadigan boʻlsak, oʻzida morfologik va sintaktik meʼyorni mujassamlashtirgan meʼyor. Grammatik meʼyor haqida fikr yuritishdan oldin morfologik va sintaktik meʼyorlarga alohida toʻxtalish lozim.

Morfologik meʼyorda lugʻviy va sintaktik shakl yasovchi qoʻshimchalarining oʻrinli qoʻllanishi talab etiladi. Lugʻaviy shakl yasovchilar: koʻplik, kichraytirish-erkalash, qarashlilik, oʻrin-joyga xoslik; sifat va ravishning daraja shakllari; sonning maʼno turini hosil qiluvchi qoʻshimchalar; feʼlning boʻlishsizlik, nisbat va vazifa shakllari hamda sintaktik shakl yasovchi qoʻshimchalar: egalik, kelishik, bogʻlama; zamon, shaxs-son, mayl shakllari. Ushbu meʼyorga zid holat sifatida kelishik shakllarining qoʻllanish jarayonidagi xatoliklarni tahlilga tortishimiz mumkin: birinchidan, -ning qoʻshimchasi qatnashgan birikmalarda uni –ni tarzida nutqqa olib kirish barcha uchun odat tusiga kirgan: tilshunosligimizda egalik shakllari oʻziga qaratqich kelishigini tobelantirib kelishi kerakligi toʻgʻrisida nazariya mavjud va uyni tomi, meni kitobim kabi birikmalaridagi egalik shakllari ham yuqoridagi qoidaga muvofiq uyning tomi, mening kitobim koʻrinishida qaratqich shaklini olgan soʻzlar bilan tobe-hokimlik munosabatiga kirishi maqsadga muvofiq; ikkinchidan, tushum kelishigi shaklining ogʻzaki nutqda undosh harflar bilan tugagan asoslarga qoʻshilganda “-di\~ti” shaklida talaffuz qilinishi: “yerdi chopdi, koʻylakti kiy” tarzida nutqda keng foydalanish nutqning sifatiga zarar yetkazadi; uchinchidan, joʻnalish kelishigining gʻ undoshi bilan tugagan asoslarga qoʻshilganda -qa tarzida aytilishi (toqqa, boqqa) ham bu meʼyorga zid holatlar sirasiga kiradi; toʻrtinchidan, dialoglarda oʻrin-payt kelishigining oʻrniga joʻnalish kelishigi shaklini qoʻllash: “maktabgaman” soʻzida oʻrin-joy mazmuni ifodalash maqdasida -da kelishigini qoʻllash kerak, -ga qoʻshimchasidan esa yoʻnalish, atalganlik, sabab va maqsad mazunidagina foydalangan maʼqul. Koʻrib turganingizdek, shakl yasovchi qoʻshimchalardan mos va toʻgʻri foydalanish - morfologik meʼyorning asosiy talabi. Sintaktik meʼyor esa gapdagi soʻzlarning bogʻlanishi hamda gap qurilishini taʼminlaydi. Ega va kesim munosabati, soʻz birikmalarining birikish usullari, teng bogʻlanish, gap boʻlaklarining toʻgʻri tartibda joylashuvi kabi gap tuzilishidagi muhim masalalar ushbu meʼyorning asosiy obyektlaridir. Misol uchun, talabalar darsdan soʻng oʻquv mashgʻulotiga boradigan boʻldi jumlasida eganing III shaxs koʻplikda aks etishi kesimning ham aynan shu shaxs va sonda ifodalanishini talab etadi, boisi har qanday gap tuzilish jarayonida undagi ega va kesim shaxs va sonda qatʼiyan mos kelishi talab etiladi yuqoridagi jumlaning ushbu qoidaga muvofiq shakli quyidagicha boʻlishi oʻrinli: talabalar darsdan soʻng oʻquv mashgʻulotiga boradigan boʻldilar.

7. Derivatsion meʼyor – soʻz yasovchi qoʻshimchlari yordamida oʻrinli va toʻgʻri soʻz yasashga oid meʼyor. Oʻzbek tilida ot, sifat, ravish va feʼl soʻz turkumlarida yasash xususiyati mavjud boʻlib, “yutuq”, “chiroyli”, “mardona”, “egallamoq” singari yasama soʻzlar yillar davomida inson ongida muhrlanib kelgan. Biroq nutqimizda yana shunday soʻz yasovchi qoʻshimchalar yordamida yasalgan yangi leksemalar borki, ular nutqimizda nafaol hamda

tilimizdagi lugʻatlar tarkibiga hozircha kirib ulgurmagan va biz bunday soʻzlarni okkazonalizmlar deb ataymiz. Bu borada tilshunos O.S.Axmanova “Tilshunoslik atamalari lugʻati”da ushbu birlikni quyidagicha talqin etadi: “Okkazonal (soʻz, maʼno, ibora, tovush birikmasi, sintaktik shakllanishlar) - “noodatiy”, umumfoydalanish uchun qabul qilinmagan, qoʻllanishga mos kelmaydigan, individual did bilan tavsiflangan, foydalanishning oʻziga xos konteksti bilan shartlanganlardir”. Okkazonallar, asosan, nazmda shoirlar tomonidan yaratiladi va buni Iqbol Mirzoning sheʼriyatidagi “doʻstnuxsa”, “sevgifurush”, “sinovxona”, “shoigarchilik” soʻzlar misolida koʻrishimiz mumkin. Ushbu soʻzlardan garchi ogʻzaki va yozma nutqda foydalanish derivatsion jihatdan xato hisoblansa-da, ijodkorlar oʻz mahoratidan kelib chiqqan holda ularni kashf etish va oʻz asariga badiiy estetik zavq qoʻshish imkoniyatiga ega. Shuningdek, yana bir meʼyoriy buzilish sifatida yasovchi affikslarning ortiqcha qoʻllanilishining guvohi boʻlishimiz mumkin. Masalan, “besabrsizlik” soʻzida “be-”, “bogʻzor” soʻzida “-zor” yoki “gʻarazgoʻylilik” soʻzida esa “-li” qoʻshimchasining keraksiz ravishda ishlatilgani hamda yoki “havasgoʻy” soʻzida “-goʻy” affiksining xato qoʻllanilgani(-kor boʻlishi oʻrinli) shular jumlasidan.

8. Stilistik meʼyor – soʻzlarning uslub jihatidan nutqda maqsadga muvofiq kelishi. Oʻzbek tilidagi 5 ta uslubning qoʻllanish doirasi va chegarasi bir-biridan tubdan farq qiladi. Xususan, hujjat ishlarining rasmiy, OAVning publitsistik, ilm-fanga doir holatlarning ilmiy, kundalik suhbatlarning soʻzlashuv hamda nasr va nazmdagi asarlarning badiiy uslubda boʻlishi barchaga birdek maʼlum. Biroq badiiy uslubga xos boʻlgan “ashk”, “xirad”, “dahr”, “chun” kabi soʻzlarni publitsistik uslubda qoʻllash yoxud soʻzlashuv uslubiga siz-u biz foydalanadigan “boʻpti”, “aha”, “kelishdik”, “gapni qisqasi” kabi soʻz va birikmalarni rasmiy uslubda foydalanish nafaqat uslubiy xatolikni, balki mazmunan “soxtalik”ni hamda “jonsiz” nutqni yuzaga chiqaradi.

9. Orfografik meʼyor – soʻzning oʻzbek tilining imlo lugʻatidagi muqobiliga mos tarzda yozilishini talab qiluvchi meʼyor. Misol uchun, yozma nutqda xayol, shama, sabr kabi soʻzlarning “hayol”, “shaʼma”, “sabr” koʻrinishida kelishi aynan ushbu meʼyorning qayʼiyan buzilganligini koʻrsatsa, OAVdan foydalanish jarayonida siz-u biz tez-tez uchratadigan: “hoʻp”(xoʻp), “assalom aleykum”(assalom aleykum), “yaxwi”(yaxshi), “hechnma”(hech nima) kabi soʻzlar ham ayni shular jumlasidan. Shuningdek, 1995-yil 24-avgustda qabul qilingan 7 banddan iborat imlo qoidalari toʻgʻrisidagi qonun ham bu borada muhim ahamiyatga ega. Ushbu qonun unli va undosh harflar imlosi, asos va qoʻshimchalar imlosi, bosh harflar imlosi, qoʻshib yozish, ajratib yozish, chiziqcha bilan yozish hamda boʻgʻin koʻchirish qoidalari yuzasidan tahliliy nazariyalarning amaliyotga tatbiqiga asoslangan.

10. Punktatsion meʼyor – yozma nutqda mavjud 10 ta tinish belgisining toʻgʻri qoʻllanilishini koʻrsatib beruvchi meʼyor. Ushbu meʼyordan amalda foydalanish, avvalo, tinish belgilarining qoʻllanish oʻrinlaridan boxabar boʻlishni talab etadi. Misol uchun, “Hayot bir haqiqatni koʻrsatadi: biz – insonlar oʻtmish qaygʻusi va kelajak xavotiri bilan yashar ekanmiz-u, bugunning baxtini ilgʻamas ekanmiz” jumlasini tahlil qiladigan boʻlsak, ushbu gapdagi ikki nuqta(:)ning qoʻshma gaplar orasidagi izoh munosabati uchun, tire(-)ning ajratilgan boʻlakni ifodalash uchun, vergul (,)ning esa bogʻlangan qoʻshma gapdagi sodda gaplarni bogʻlash uchun xizmat qilganini koʻrishimiz mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI**

1. Hamidov A. Oʻqituvchi nutq madaniyati.-Termiz: 2013
2. Joʻrayev N. Nutq madaniyati asoslari.-Toshkent: Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2015.
3. Qilichev E., Mahmudov N. Oʻzbek tili nutq madaniyati.-Toshkent; Fan va texnologiya,

2018.

4. Kostomarov V. G. Vereshchagin em language culture. Vereshchagin E., Kostomarov VG Language and culture., 1983. Karaulov Yu. N. Russian language and linguistic personality. M., 1987. – 1987.
5. Golovin B. N. Osnovy kultury rechi. – Vysshaya shkola, 1980.
6. Холова М. А. О ‘zbek shevalarining standart tilga munosabati va til tizimidagi o ‘rni (Boysun tumani “j” lovchi shevalar misolida) //международный журнал искусство слова. – 2020. – Т. 3. – №. 5.
7. Ахманова О. С. Словары лингвистических терминов. – Москва. 2007. -С.78.
8. Yoqubboyeva S. Iqbol Mirzo she’riyatida okkazionalizmlarning qo’llanishi //Найка и инновация. – 2025. – Т. 3. – №. 14. – С. 140-142.
9. Widdowson, H. Practical stylistics. Oxford: Oxford University Press, 1992. – p. 104
10. 339-сон 24.08.1995. O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida